

## TATABBU - ILHOM VA MAHORAT SAMARASI

**Raimova Hilola Ma'murjon qizi,***Qo'qon universiteti Filologiya kafedrasida katta o'qituvchisi  
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'zbek adabiyoti tarixida tatabbu asarlarning vujudga kelishi, ularga qo'yiladigan talabalar haqida fikr yuritiladi. Shu bilan birga Qo'qon adabiy muhiti asoschisi Umarxon Amiri va uning Xorazm adabiy muhiti vakillari ijodiga ta'siri, Amiriyning o'zbek adabiyoti radif zaxirasini boyitganligi, xususan, 123 ta original radiflar qo'llab ijodkor sifatida mahoratini namoyo etganligi haqidagi qarashlar ilgari surilgan. Shu bilan birga, maqolada asos g'azal muallifi ham, unga ergashgan ijodkorlar ham, asosan, o'zbek tili imkoniyatlaridan foydalanib, qadimiy she'riyatimiz an'analarini ijodiy rivojlantirib va boy xalq og'zaki ijodi ta'sirida yaratganliklari haqida to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** tatabbu, adabiy muhit, izdoshlik, badiiy ijod, uslub, radif, qofiya, g'oya, obraz, tasviriy ifoda, janr, g'azal, muxammas, musaddas, tuyuq, badiiy mahorat.

**Annotation:** This article examines the emergence of tatabbun works in the history of Uzbek literature and the requirements placed on such compositions. It considers the influence of Umarxon Amiri, founder of the Kokand (Qo'qon) literary milieu, and the impact of the Khorezm (Xiva) literary environment on his creative output. The study argues that Amiri significantly enriched the Uzbek poetic stock of radifs, demonstrating his mastery by employing 123 original radifs. The article also shows that both the principal ghazal author and his followers largely exploited the expressive possibilities of the Uzbek language to creatively develop the traditions of our classical poetry, often under the influence of folk oral creativity.

**Keywords:** tatabbun, literary milieu, discipleship, creative writing, style, radif (refrain), rhyme, idea, image, figurative expression, genre, ghazal, mukhammas, musaddas, tuyuq, artistic mastery.

**Аннотация.** В статье рассматривается возникновение татаббу-произведений в истории узбекской литературы и требования, предъявляемые к ним. Также анализируется влияние основателя кокандской литературной среды Умархона Амира на творчество представителей хорезмской (хивинской) литературной среды. Отмечается, что Амирий обогатил запас радифов узбекской поэтической традиции, в частности использовав 123 оригинальных радифа, что демонстрирует его мастерство как творца. Кроме того, в статье подчеркивается, что автор основного газалья и последовавшие за ним поэты в основном использовали возможности узбекского языка, творчески развивая традиции древней поэзии и создавая произведения под влиянием богатого народного устного творчества.

**Ключевые слова:** татаббу, литературная среда, подражание, художественное творчество, стиль, радиф, рифма, идея, образ, образное выражение, жанр, газаль, мухаммас, мусаддас, туюк, художественное мастерство.

**Kirish.** O'zbek adabiyotidagi ilk tatabbular XII asrda yuzaga kelgan. Mumtoz she'riyatimizda g'azalning janr sifatida qaror topishi ham shu davrga to'g'ri keladi. Ayrim manbalarda g'azalning ilk namunasi Nosiruddin Rabg'uziy va Xorazmiy asarlarida uchrashi ta'kidlanadi, lekin undan avvalroq Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy ijodlarida ham g'azal janrining ilk ko'rinishlari uchraydi. Tatabbu esa adabiy istiloh sifatida izdoshlik, ijodiy ergashish degan ma'nolarni bildiradi. Ya'ni ijodiy bellashuv. Biror shoir yozgan g'azaliga vazn, qofiya, radif va mavzuni saqlagan holda ergashib she'r bitishdir. Lekin uni taqlid sifatida baholab bo'lmaydi. Chunki tatabbu an'ana, yangilik va mahorat kabi uchlikning go'zal mahsulidir. "Tatabbu asarlar muayyan ijodkor asarlariga

mazmun va shaklning ayrim unsurlari o'xshashligi asosida vujudga keladi. Tatabbudagi asosga o'xshashlik ham mazmun, ham shaklda bo'ladi. Aniqroq aytganda, mashhur asarga bitilgan tatabbu asos g'azalga mavzu, g'oya, obraz, tasviriy vositalar, qofiya, radif, vazn, uslub jihatidan o'xshash bo'ladi."

Tatabbunavislik adabiy jarayon va adabiy aloqalar taraqqiyoti, an'ana, yangilik va mahorat masalalari bilan bog'liq bo'lib, uning vujudga kelishi quyidagicha yuz beradi:

1. Mashhur va yetuk ijodkorga tenglashish uchun unga izdoshlik qilish;
2. Badiiy-go'yaviy mukammal asarlarga shu jihatdan o'xshash asarlar yaratishga intilish;
3. O'z badiiy iqtidorini ko'rsatish maqsadida yetuk asarlarga javobiya yozish;
4. O'zgalar taklifiga binoan yetuk asarlarga javobiya yozish;
5. Mashhur asarlarga javobiya yozish musobaqalarida qatnashish;
6. Adabiy hayotdagi tatabbu yozish an'analari ixtiyoriy ravishda davom ettirish;
7. Yetuk asarlarga tatabbu bitish orqali o'z badiiy mahoratini shakllantirishga intilish;
8. Boshqa xalqlar adabiyotidagi yetuk va mashhur asarlarga javobiya yozish orqali o'z adabiyotida yangilik yaratish.

Tatabbu asarlarining yaratilishida mazmun va shakl unsurlari faol ishtirok etadi. Lekin ularning ishtirok etish nuqtai nazaridan faolligini ikkiga bo'lish mumkin. Birinchisi, o'ta zarur bo'lgan unsurlar. Bularga mavzu, vazn, qofiya va radif kiradi. Chunki ularsiz asos bo'lgan asarga javobiya yoki izdoshlik yuzaga kelmaydi. Ammo shunisi ham borki, tatabbu asarda ularning ba'zilari, masalan, vazn yoki qofiya yangilanishi mumkin. Ikkinchisi, ishtiroki zarur bo'lgan unsurlar. Bularga g'oya, obraz, tasviriy ifoda, janr kabilar kiradi. Ular tatabbu asarda badiiylikni ta'minlaydi. Ijodkor tatabbu asarda ularni yangilashi, yoki asos asardagiga nisbatan yangi qirralarini ochishi mumkin. Hatto shunday qilish shart hamdir. Chunki tatabbuda asos asardagi biz yuqorida sanab o'tgan unsurlar aynan qaytarilsa taqlidga o'xshab qoladi. Vaholanki, tatabbu fikriy faollikni, ijodkorlikni taqozo etadi. Zero, bu yaratilayotgan yangi asar birinchisini qaytarmagani holda, undan a'lo darajadagi qiyoslar bilan ziynatlanishi kerak.

**Tadqiqot metodlari va adabiyotlar tahlili.** Tatabbunavislik, xususan, Qo'qon va Xiva adabiy muhitlarida nihoyatda rivojlangan. Umarxon saroyining malik ush-shuarosi Fazliy Namangoniyning "Majmuat shuaro" ("Shoirilar majmuasi") tazkirasi asosan shoh-shoir g'azallariga qilingan tatabbulardan iborat. Chunonchi, "ko'ring" radifli g'azaliga 15 ta, "ey to'ti" radifli g'azaliga esa 22 ta tatabbu qilingan. Ahmadjon Tabibiy esa Xiva adabiy muhiti shoirlarining Feruz g'azallariga qilgan tatabbulari asosida alohida to'plam tartib bergan. "Majmuai shuaro payravi Feruzshohiy" deb atalgan bu tazkira Xiva xoni Feruzning 101 g'azali va zamondosh shoirlarning unga qilgan tatabbularini o'z ichiga olgan. Keyingi asrlarda o'zbek adabiyotida turkiy shoirlardan Navoiy va Fuzuliy, forsiy shoirlardan Hofiz, Jomiy va Bedil g'azallariga tatabbu yozish avj olgan.

Amiriyning adabiyotshunos olima Zeboxon Qobilova va navoiyshunos olim Olimjon Davlatovlar tomonidan nashrga tayyorlangan ikki devonining birinchi o‘zbekcha she‘rlar qismidan 318 g‘azal o‘rin olgan bo‘lib, ulardan 219 tasi radifli va 99tasi radifsiz g‘azallar hisoblanadi. Quyida biz ana shu Amiriy qo‘llagan radiflarni jadval asosida berishga harakat qildik.

1-jadval

No							
1.	“xay-xay”	31	do‘ndurmish	62	oshiq bo‘lon	93	xavas etmas
2.	amir	32	dushmandur	63	pari	94	qo‘zg‘olmasun
3.	andisha qil	33	el chekduk	64	qadrini	95	uchradi nogoh
4.	anor	34	eli	65	qani	96	ustidadur
5.	aylagon	35	erur ahsan	66	mendan o‘rgandi	97	qosh
6.	aylamay naylay	36	ey qumri	67	mijgoning	98	qoshlaring
7.	aylansun	37	falak	68	mijgonlaring	99	qurboning
8.	aylay bukun	38	g‘alat	69	muborak	100	rashk
9.	ayrilmasun	39	gulnor	70	mujdasi	101	sadqasi
10.	aytadi	40	halqasi	71	mukarrar	102	sahar
11.	ayting	41	harir	72	mushkul	103	sallamno
12.	bale	42	havo	73	muzmar	104	sango
13.	band	43	istig‘nosi bor	74	nadur	105	chirin
14.	bandadur	44	kamaring	75	nay	106	chohim
15.	bebok	45	kam-kam	76	nechuk qilsun	107	sizmusiz
16.	bexabar	46	karam etdung	77	nogoh	108	sog‘indim
17.	bezobita etti	47	kechasi	78	o‘ldi o‘xshaydur	109	ta‘ma
18.	bilmay	48	keltur	79	o‘lg‘ay	110	tabranib
19.	biri	49	kiprik	80	o‘lmas	111	tahsin
20.	bor ekan	50	ko‘rguzing	81	xizimating	112	topti jon
21.	bormukun	51	ko‘rmadim	82	o‘lturgudek	113	tamosho
22.	boyistiy	52	kokul	83	o‘lturur	114	tamosho qil
23.	chekma	53	kul	84	o‘rgulsun	115	tarab
24.	chekon	54	kuydurma	85	o‘shal	116	tarog‘
25.	dasta-dasta	55	lutf	86	xo‘p bo‘ldi	117	tasadduq
26.	demas	56	maning	87	o‘xshattim	118	taslim
27.	dermishlar	57	mavzun	88	o‘xshotma	119	tikmagil
28.	do‘ndurdi	58	qarou qirmiz	89	o‘ynamoq	120	toj
29.	yoning	59	qildi soz	90	oh	121	tong otguncha
30.	zeb	60	qilon	91	oshiq bo‘lmisham	122	topdim
31.	qiyg‘och	61	xofiz	92	xush kelding	123	yod ettim

Ko‘rishimiz mumkinki, Amiriyning sof o‘zi kashf etgan, faqatgina uning ijodi uchun daxldor bo‘lgan 123 ta radif zaxirasi mavjud.

**Natijalar.** Klassik adabiyotimiz tarixida alohida hodisa bo‘lgan Qo‘qon adabiy muhitining vujudga kelishi va rivojlanishi uchun astoydil harakat qilgan Amiriy o‘zi

yaratgan muhitning zabardast sohibi qalamlaridan hisoblanadi. Shoir tomonidan yaratilgan gʻazal -u muxammas-u musaddas, musamman-u tuyuqlarida soʻzlarni shunday darajada qoʻllaydiki, uni „soʻz guharshunosi“ deb atash, albatta, joizdir.

Shoir devonining bir qancha nusxalari mavjud. Devon gʻazal, muxammas, musaddas, tuyuq kabi janrlardan tarkib topgan. Ushbu janrlardan gʻazal va muxammas Amiriy ijodida asosiy oʻrinni egallaydi. Amiriy gʻazallari mavzu jihatidan, asosan, ishqiy yoʻnalishda bitilgan.

“Sharq soʻz sanʼatining zabardast namoyondalaridan soʻz jilosi sirlarini oʻrganish, ulardan ilhomlanish, hamda ularga ergashish, gʻazallari tatabbu yozish, taxmis bogʻlash – Amiriy ijodining karakterli xususiyatlaridan hisoblanadi.” Qoʻqon adabiy muhitining asoschisi Amiriy oʻz davrida qator ijodkorlarga ustozlik qilgan. Shoirlik borasida yoʻl-yoʻriq koʻrsatgan. Amir Umarxonning shoirlik borasidagi, ustozlik borasidagi faoliyatlari ulkan bir davr – Qoʻqon adabiy muhitining shakllanishi va rivojlanishiga zamin hozirlagan.

1821-yilda Fazliy Namangoniy Umarxon amriga binoan, 70 dan ziyod shoirning sheʼrlarini oʻz ichiga olgan «Majmuai shoiron» toʻplamini tuzgan. Uni ulugʻlab qasidalar yozish, gʻazallariga tatabbular bogʻlash bu shoirlar ijodida yetakchi oʻrin tutgan. Bu narsa Xorazm ijodkorlarini ham befarq qoldirmagan. Amiriy ijodiga qiziqishning, uning gʻazallariga tatabbular bogʻlashlarining eng asosiy yana bir sababi uning ijodidagi serjilolik, betakrorlikdir. Chunonchi, “Xiva adabiy muhitining isteʼdodli vakili Avaz Oʻtar ijodiga nazar tashlaydigan boʻlsak, uning Amiriydan ilhomlangani, oʻziga ustoz deb bilgani, shoirning ayrim gʻazallariga tatabbular bitganligini koʻrishimiz mumkin.”

**Muhokama.** Jadvalda keltirganimizdek, Amiriy ijodida “Muborak” radifli gʻazal mavjud boʻlib, ushbu gʻazal badiiy mukammalligi bilan ajralib turadi. Gʻazal aruz vaznining *rajazi musammani solimi maqbul* vaznida yozilgan. Yaʼni ruknlari: *mustafʼilun -fauvlun-mustafʼilun -fauvlun (- - v- / v - - / - - v- / v- -)* asllaridan hosil boʻlgan.

*Husning kamola yetdi, ey mahliqo muborak*

*Oyinayi jamoling topdi safo muborak (175)*

Bayti bilan boshlanuvchi Amiriyning ushbu gʻazali tavsifiy xarakterda boʻlib, maʼshuqaning husn-u malohatda ham, ibo-hayoda ham tengsiz ekanligi va shu sifatlarga munosib tarzda yorga inoyatda ham sahovatli boʻlishini iltijo qiladi. Amiriy boʻy qizlarning kamolga yetib, bir mahliqo boʻlganligini taʼriflar ekan, ular jamolini oynadek ekanligini va uning gʻoyat pokiza ekanligini taʼkidlaydi.

Avaz Oʻtar ham Amiriy izidan borib, “muborak” radifli gʻazalga tatabbu bitadi. Amiriy gʻazali toʻqqiz baytdan iborat boʻlsa, Avaz Oʻtar yetti baytli tatabbu bitgan. Har ikki gʻazalda ham vazn bir xil, radif aynan takrorlangan, qofiyalar ham oʻxshash.

*Topmish kamol husning, ey mahliqo muborak.*

*Bermish bori jahonga nuri ziyo muborak.*

Avaz O'tarda matla'ning birinchi misrasi takrorlangan holda, ikkinchi misrada ma'shuqasining kamolga yetgan go'zal husn-u jamoli hatto butun olamga ziyo tarqatayotganligi ma'lum qilinadi.

Amiriy g'azalining ikkinchi bayti quyidagicha:

*Xo' b o'ldi orazingni oyinadin yoshurding,*

*Ey sho'xi mohi tal'at sharm-u hayo muborak.(175)*

Ushbu baytda oyina so'zi jahon, olam ma'nosini ifodalaydi va bu o'rinda yor yuzini olamdan yashirayotganligini ma'lum qiladi. Oshiq oy yuzli mashuqaning hayoli ekanligidan shodlanadi. Yana bir e'tiborli jihati shundaki, ushbu g'azalda ifodalangan majoziy ishq bu baytga kelib ilohiylik kasb etgandek bo'ladi. Ya'ni shoir orazingni oyinadin yoshurding deya bu ishning yaxshi bo'lganligini ta'kidlar ekan, shu o'rinda Yaratganga, uning jamoli butun insoniyatga yashirin ekanligiga ishora qiladi.

Avaz O'tar ikkinchi baytni shunday ifodalaydi:

*Qilmish fuzun jamoling zeb ila ziynatingni,*

*Ey yor, toza kiygan gulgun qabo muborak.*

Ushbu baytda shoir mashuqasini shunday madh etadiki, zeb-ziynatlar mashuqani emas, balki yorning go'zalligi zeb-ziynatlarni ko'rkini ochadi go'yo.

Amiriy:

*To yuzga g'oz a chekting, qonimni to'kdi g'amzang,*

*Noz ilgida, nigoro, bo'lsin xino muborak.(175)*

Amiriy ushbu baytda "g'oz", "xino", "yuz", "qo'l" so'zlari orqali tanosub san'atining go'zal marjonini tizadi. Mashuqasining o'ziga zeb berib, pardoz qilishi oshiqning ahvolini yanada og'irlashtiradi. Yorning noz qilishi esa, oshiqning dardini ikki karra oshiradi.

Avaz O'tar:

*Ey ishq hayli ichra mehr-u vafoda sodiq,*

*Kelmish yuzin ochib ul bazming aro muborak.*

Avaz O'tar esa yorini sadoqatli, vafoga sodiqligini bayon qilar ekan, uni oshiqqa peshvoz chiqishi bayramdek bo'lishiga urg'u beradi.

Amiriy:

*Harchand manga paymon paymonasin ushotting,*

*Qilding raqiblarga ahd-u vafo muborak.(175)*

Amiriyda esa mashuqa oshiqqa faqat va faqat jabr-u zulm qiladi. Ayni paytda, raqiblarga yaxshi munosabatda bo'lishi oshiqning paymonasini to'ldiradi.

Avaz O'tar:

*Ag'yori shumni aylab bu kecha dog'u nokom,*

*Ul sho'xi shang qilg'on lutfu ato muborak.*

Tatabbuda Avaz O'tar mashuqasi ag'yorni lol qoldirib, oshiqqa lutf qiladiki, bundan oshiqning boshi osmonga yetadi.

Amiriy soʻz maʼnolarini benihoya nozik his qiladi va oʻz sheʼrlarida undan mahorat bilan foydalanadi. Chunonchi shoir bir baytda:

*To masnadi malohat sultonisan, vafo qil,  
Shahdin karam munosib, quldin duo muborak.(175)*

deya goʻzalliklar sohibi, sultoni boʻlgan yorga oshiqqa bir bora ehson qilishini yolvoradi. Ayni shu oʻrinda ”shoh” va ”qul” soʻzlari orqali tazod sanʼatidan unumli foydalanganligini koʻrishimiz mumkin. Yaʼni ijodkor “vafo qil” deya mashuqasiga murojaat qilar ekan shu oʻrinda mashuqa orqali butun insoniyatga “Shahdin karam munosib, quldin duo muborak” deya nasihat qilib oʻtgandek boʻladi. Amiriy mamlakat hukmdori sifatida aholiga adolat va muruvvat qilish lozimligi taʼkidlash orqali shahzodalarga ham oʻgit aytgandek boʻladi. Ayni paytda, majoziy ishqni yana bir bor ilohiylik tomon buradi. Oʻzining banda, yaʼni qul ekanligini taʼkidlab, Ollohga jamiki goʻzalliklar sultoni ekanligini, karam, xayr-sahovat shohga munosib boʻlgan hislat ekanligini aytib oʻtadi.

Avaz Oʻtarda shu maʼnodagi bayt:

*Javru jafo rusumin tark aylabon bu oqshom,  
Ul nozanin tutubdir rasm-u vafo muborak.*

Tatabbuda mashuqa bir kecha jabr qilish odatini tark etib, yorga inoyat qiladi. Mashuqaning ushbu harakati oshiqni behad quvontiradi.

Amiriy:

*Bir shoʻxi dilraboning boʻldim asir-u zulfi,  
Boshimga tushdi savdo, qilsun Xudo muborak.*

Ushbu baytda Amiriy bir oʻynoqi dilbarga oshiq boʻlib qolganligini bayon qilar ekan, boshiga tushgan bu azobli savdo bilan oʻzini-oʻzi qutlaydi.

Avaz Oʻtar:

*Ayyomi vasl bordur ayyomi iyd yangligʻ,  
Ahhob boʻlgʻay ul kun doim manga muborak.*

Avaz Oʻtar tatabbuda xuddi xayit bayrami singari visol bayrami bor ekanligini, ushbu bayramni intiqlik bilan kutajagini maʼlum qiladi. Bu oʻrinda shoir tashbeh sanʼatiga murojaat qilganligini koʻrishimiz mumkin.

Maqtaʼni Amiriy faxriyasi oʻlaroq qabul qilish oʻrinli boʻladi:

*Ul sarvqad xayolin qilding Amir insho,  
Tabʼi salim birla fikri raso muborak.(175)*

Ul sarv boʻylik yor xayolini shunday yozdingki, taʼbi saʼlim va fikri rasolik muborak boʻlsin! Bu oʻrinda Amiriy maʼshuqa taʼrifini maromiga etkazib taviflashda unga Yaratgandan berilgan isteʼdod qoʻl kelganligini taʼkidlaydi.

Avaz Oʻtarda esa bunday maʼshuqa visoli oshiq uchun faqat orzu boʻlib qolishiga ishora qilgandek boʻladi. Chunonchi:

*Shum muddaiy yuzina solma nazar Avazkim,*

*Diydorin oni ko'rmak oshiqqa nomuborak.*

Quyida Xorazm shoirlarining Amiriy g'azallariga tatabbularini havola etamiz.

### 2-jadval

№	Amiriy g'azallari ( radiflar)	Tatabbu qilgan xorazmlik shoirlar
1	“Muborak”	Avaz O'tar, Ogahiy, Feruz, Otaniyoz Niyoziy, Komil Xorazmiy
2	“Sallamno”	Ogahiy, Feruz, Otaniyoz Niyoziy,
3	“Sizmusiz”	Feruz, Otaniyoz Niyoziy, Avaz O'tar
4	“Aylansun”	Ogahiy, Rojjiy

Amiriyning bir necha g'azallariga tatabbu qilgan shoirlar:

### 3-jadval

№	Ijodkor nomi	Amiriy g'azallari ( radiflar)
1	Shermuhhammad Munis	“Aylading”, “Band”, “Qilmading”, “Ichra”, “Ko'nglum”
2	Ogahiy	“Aylansun”, “Keldi”, “Shaydolanmasun”
3	Feruz	“Bandadur”, “Etting”, “Kelur”, “O'lturur”
4	Avaz	“Ey soqiy”, “Etti”, “Bo'ldi”, “Tong otguncha”
5	Komil Xorazmiy	“Oshiq bo'lmisham”, “Ey, qumri”
6	Otaniyoz Niyoziy	“Aylamas”
7	Rojjiy	“Ko'rung”

Amiriydan eng ko'p ilhomlangan Xorazm shoirlari, bu albatta, Ogahiy va Avaz O'tardir. Amiriy ijodida ilohiy va majoziy ishq tasviriga keng o'rin berilgani barobarida bu ikki ijodkor asarlarining asosini ham mana shu ikki tushunchaning uyg'un holda tasvirlangan holati tashkil etadi.

Ogahiy ham Amiriyning qator g'azallariga tatabbular qilgan, jumladan, “Muborak” radifli g'azaliga Avaz O'tardan qolishmaydigan darajada badiiy barkamol o'xshatma yaratgan. Ogahiyning ayni radifli g'azali ham Amiriyniki kabi *rajazi musammani solimi maqbul* vaznida yozilgan. Ya'ni ruknlari: *mustaf'ilun -fauvlun-mustaf'ilun -fauvlun* (- - v- / v - - / - - v - / v- -) asllaridan hosil bo'lgan. Ogahiy qofiya sifatida *mahliqo, ziyo, sarto-bapo, xudo, sango, qabo, vafo, mango, duo, ato, rizo, xato, ango* kabi arabiy va sof turkiy so'zlardan foydalanib muqqayyad qofiya turini yuzaga keltirgan. Ogahiy ushbu g'azalida “yuz”, “ikki hilol”, “latofat bo'stonining guli” tashbehlari orqali yorning zohiriy olamiga mos sifatlarini, latif va jozibador qiyofasini chizar ekan, uning labi va sabzalarida nafaqat tabiiy go'zallikni, balki o'zgacha bir tarovatni, yorug'lik va iliqlikni, pokizalik va komillikni ko'radi. Xorazm adabiy muhitining asoschisi Feruz ham, adabiy muhitning yana bir yirik vakili Otaniyoz Niyoziy ham Amiriyning ushbu “Muborak ” radifli g'azaliga tatabbu qilganlar. Otaniyoz Niyoziy o'z g'azalida ma'shuqa ta'rifida “shohi

zamon”, “shamshod-u sarv qadli”, “mushkin qosh”, “o‘q otar mujgonli”, “kamon qosh”, “sulaymoni farmonpazir” kabi tashbehlarni qo‘llab, o‘zini u ham “qul” deb ataydi:

*Ko‘ying aro Niyoziy, bir kamtarin g‘uloming,  
Chokarlaring ichida bu notavon muborak.*

Feruz ijodida esa ushbu g‘azal biroz o‘zgacha tus oladi. Nazarimizda, Feruz ushbu g‘azalda raqqosani ta‘riflaydi. Ya‘ni “Olding niqob yuzding”, “Kelding taraxxum aylab” “Bu va‘dalarga vafo qilding”, “Gohi tabassum aylab”, “Ulusdin chiqmay raqqoslik qilib”, “Yuz bo‘sa bir diramga qilding baho” deya u go‘zaldan ko‘ngli to‘lmay oxir oqibat o‘ziga o‘zi uning qosh-u ko‘ziga maftun bo‘lma, chunki ul sho‘xi nomuborak hayosiz ekan, deydi. Feruz dilrabo, ziyo, aro, vafo, ado, navo, baho kabi so‘zlarni qofiya sifatida qo‘llab, mavzuda ham, ko‘rib turganimizdek, biroz yangilik qiladi.

Amiriy ijodidagi badiiy barkamolligi jihatdan bir necha ijodkorlarga ta‘sir ko‘rsatgan g‘azallardan biri “Sizmusiz?” radifli g‘azaldir.

Aruz vaznining ramal bahrida yaratilgan olti baytli ushbu g‘azalda Amiriy barbod, bedod, shod, sayyod, Farhod, Xudodod, jallod kabi so‘zlardan qofiya sifatida foydalanadi. Mazkur g‘azalda Amiriy ma‘shuqasini “qotil” sifatida ta‘riflar ekan, uni, avvalo, qattiq ko‘ngilli deya ta‘riflab, oshiqning qotili, zolim jallod, Besutun qotili va yana qo‘yingki, butun olamni bardob etuvchi qotilga o‘xshatadi. G‘azalning keyingi baytlarida ma‘no kuchayib boraveradi.

**Xulosa.** Xorazm adabiy muhitining rahnamosi va homiysi Feruz ijodida ham Amiriyning ayni g‘azaliga ijodiy ergashib yozilgan g‘azalni uchratish mumkin. Feruz Amiriy g‘azaliga tatabbu qilar ekan uni, avvalo, 7 baytga chiqaradi. Amiriyning: nozli kipriklaringiz xanjari o‘ldiradi, oshiqni ovlash uchun chiqqan ovchi sizmisiz?, mazmunidagi quyidagi baytiga :

*Bismil etar bu hanjari mujgoni nozingiz,  
Oshiqni sayd etgali sayyod sizmusiz?(123)*

hamohang Feruz ham go‘zal tasvir yaratadi:

*Ko‘rguzib nozu ado dilbarlik oyini birla,  
Jon qushini sayd qilgan shohbozim sizmusiz?*

U ma‘shuqasini jon qushini ovlaydigan shohboz deya ta‘riflaydi. Feruzning ushbu g‘azali ham ko‘rinib turganidek, ramali musammani mahzuf vaznida bo‘lib, ijodkor ushbu g‘azalda mavzu, vazn va radifni saqlagan holda ammo qofiya tizimi o‘zgartirib, unga ijodiy jihatdan yondoshadi. Feruz *sarvinozim, niyozim, shohbozim, tirozim, sarfarozim, lutfi ozim, rozim, Ayozim* kabi so‘zlardan qofiya sifatida foydalanadi. Biz yuqorida sanab o‘tganimiz tatabbu uchun o‘ta zarur unsurlardan hisoblangan qofiya timizini yangilaydi, lekin qolgan uch qism: vazn, radif va mavzu saqlangan holda boyitiladi.

Avaz O‘tar ijodida ham “Sizmusiz?” radifli g‘azal mavjud bo‘lib, u ham 7 baytdan iborat. U ham vazn, mavzu va radifni saqlagan holda qofiya tizimi o‘zgartiradi. Biroq Avazda ma‘no birdan yuqorilab ketmay, pog‘onama pog‘ona ko‘tarilib boradi. Ya‘ni u

ma'shuqasiga "bizni ishq aro maftun-u hayron qilgan", "notavon-u besar-u somon qilgan", "bag'rimni to'la qon qilgan", "qon to'kardin pushaymon bo'lmagan", "jamiki mushkullarni oson qilguvchi" sifatlarini beradi, biroq Amiriydek jallod va qotil deb atamaydi. Avaz ham qofiya tizimini yangilab *hayron, giribon, somon, hijron, qon, pushaymon, oson, suhandon* kabi so'zlarni qo'llaydi.

*Ey Avaz, aylarsiz afg'onu navo subhi maso,*

*Yo giriftori hamul sho'xi suhandon sizmusiz?*

Mazkur radifli g'azalga Otaniyoz Niyoziy ham tatabbu qilgan bo'lib, endi u g'azaldagi baytlar miqdorini 9 taga yetkazadi. Vazn va radifni saqlagan holda Niyoziy ham qofiya tizimini o'zgartiradi. U *rahshon, mohitobon, shabiston, davron, handon, biryon, hayron, parishon, xonavayron, kavsarafshon* kabi so'zlardan qofiya sifatida foydalanadi. Niyoziy Avaz qo'llagan hayron so'zini qaytargani holda qolgan barchasida u ham yangi qofiyalarni topadi. Muhimi shundaki, asos g'azal muallifi ham, unga ergashgan ijodkorlar ham, asosan, o'zbek tili imkoniyatlaridan foydalanib, qadimiy she'riyatimiz an'analarni ijodiy rivojlantirib va boy xalq og'zaki ijodi ta'sirida yaratganlar.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бахтиёр Файзуллаев. Ўзбек адабиётида татаббу тарихи ва маҳорат масалалари. Фил.фан.док...дисс. Тошкент.2002. – Б. 161.
2. Бахтиёр Файзуллаев. Ўзбек адабиётида татаббу тарихи ва маҳорат масалалари. Фил.фан.док....дисс. Т.: 2002. – Б. 161.
3. Исхоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги (Тўлдирилган ва тузатилган иккинчи нашри). – Т.: "Ўзбекистон", 2014. – Б. 226.
4. Маткаримова С. Табибий – тазкиранавис ("Мажмуаи си шуарои пайрави Ферузшоҳий" асосида). Номзодлик диссертатсияси автореферати. – Т.: 2002, - Б.10.
5. Ҳамиджон Хомидий. Кўҳна шарқ дарғалари. – Т.: Моварауннахр, 1999. – Б. 137.
6. Zeboxon Qobilova. Amiriyy she'riyati. -Т.: Fan, 2010. – В. 86.
7. Аваз Ўтар. Сайланма. -Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1984. – Б.105.
8. Мухаммад Раҳимхон Феруз. Элга шоҳ-у ишққа қул. Т.: Ғофур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти., 1994. – В. 47.
9. Raimova, H. (2024, November). THE RESULT OF INFLUENCE AND INSPIRATION. In INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 3, No. 26, pp. 389-391).
10. Raimova, H. (2024). SPECIFIC ASPECTS OF THE KOKAN LITERARY ENVIRONMENT. American Journal of Philological Sciences, 4(12), 120-124.